



**MALAKAVIY O'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO'LAJAK  
TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM  
TASHKILOTI HAMKORLIGI**

---

*Bahoroy Ramozonova Sadriddinovna*

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha ta'lism metodikasi"  
kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo'lajak tarbiyachilarning malakaviy o'quv amaliyot jarayonida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti hamkorligining ahamiyati haqida yoritilgan. Bo'lajak tarbiyachilarning o'z ustida izlanishi, o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli bilim ko'nikmalarni, kasbiy mahoratini oshirishi hamda ta'lim tarbiya jarayonida otanonalar bilan hamkorlikning turli usullarini mohiyati, hamkorlik metod va turli usullari haqida bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье описывается значение сотрудничества семьи и дошкольной образовательной организации в развитии профессиональных компетенций будущих педагогов в процессе профессиональной подготовки. Описаны цель поиска себя будущими учителями, развитие достаточных знаний, умений и профессиональных навыков по своей специальности, а также характер, методы и методы сотрудничества с родителями в процессе обучения и воспитания.

**Annotation:** This article describes the importance of cooperation between the family and preschool education organization in the development of professional competencies of future educators during the process of professional training. The purpose of future teachers' search for themselves, the development of sufficient knowledge, skills and professional skills in their specialty, as well as the nature, methods and methods of cooperation with parents in the process of education and upbringing, are described.

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, tarbiyachi, oila, hamkorlik, maktabgacha ta'lim tashkiloti, hamkorlik, malakaviy amaliyot.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning bir bo'lagi bu oila yoki uy, xonadonlari bo'lib, u aynan xonodon egalarining ahvoli, turmush tarzi va yashash darajasi va



oxir-oqibat uning holati butun bir mamlakatning holatini, taraqqiyot darajasini belgilab beradi.

Oilada farzandning dunyoga kelishi bilan bog‘liq turli an'analar va bolalar tarbiyasi azal-azaldan xalqimiz tomonidan qadrlanib kelingan. Oilada farzandlarning dunyoga kelishi, ularni tarbiyalash va kamolga yetkazish oilada qadrlanib kelingan urf-odat va an'analar orqali amalga oshiriladi.

Farzandlarning dunyoga kelishi ota-oni va oila a'zolari uchun baxt, quvonchdir.

Oilada farzand ko‘rish va uni tarbiyalashda yo‘l qo‘yilgan yoki qo‘yiladigan xato va kamchiliklarning oqibatlari juda ham ayanchli bo‘ladi. Ayniqsa, farzandni tug‘ilganidan toki voyaga yetkazish jarayonida ota-onaning hayot tajribasining ozligi ham bunga asosiy sabablardan biri bo‘lishi mumkin. Farzandlarga oilada tarbiya berishda oilaning kattalari bobo, buvilarining yordami nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bobo-buvilar katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan insonlar hisoblanib, ular o‘zлari tomoindan yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarni farzandlarida takrorlamasligi uchun harakat qilishadi. O‘zi tarbiya ko‘rgan, ota-onasining mehnatini qadriga yetgan bolalar ota-onalari keksayib qolishgach ularni qarovsiz qoldirmaydi,. Ota-onadan uzoqda yashasalar ham ularni iqtisodiy jihatdan doimo ta’minlab turadi. Bu xalqimizning bolalar tarbiyasidagi o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi.

Oilada ota-onalar, MTTlarida esa maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan pedagoglar tomonidan olib boriladigan hamkorlik ishlarida bolalarni aqliy jihatdan toliqtiradigan so‘z va iboralar emas, balki xalqimiz tomonidan keng qo‘llanilgan vositalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday vositalar tarkibiga xalq og‘zaki ijodi namunalari xalq o‘yinlari va rivoyat, ertaklarni kiritishimiz mumkin.

O‘yinlar turli xil hayotiy vaziyatlarni modellashtirishga imkon beradi.

Bolalar o‘yin faoliyatida mutlaqo haqiqiy bo‘lishadi ichki menligini o‘yin orqali yoritib bera oladi. O‘yinchilar o‘rtasida shakllangan munosabatlar, bolaning kelajagiga bevosita ta’sir kuchini o‘tkazadi.

Faoliyat jarayonida bolalarning o‘zaro ta’sirini tashkil etish va ijtimoiy tajribani to‘plash usullaridan ham foydalanadi, bu esa bolalarning dialogik aloqasi bo‘yicha munosabat qurishga imkon beradi. Faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan dialogik muloqot zamonaviy tajribaning eng muhim tarkibiy qismidir. Shaxsiy faoliyatni yagona maqsad bilan birlashtirilgan qo‘shma faoliyatga o‘tkazishga yordam beradi



Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar: o‘zlashtirish, suhbatni o‘tkazishning elementar normalari, o‘zaro tekshirish usuli, o‘zaro vazifalar usuli, eng yaxshi yechimni birgalikda topish, guruhlarda vaqtinchalik ishlash, birgalikdagi tajriba vaziyatlarini yaratish va boshqalar.

Faoliyat jarayonida o‘quv va kognitiv faoliyat samaradorligini, bolalarning ijtimoiy va aqliy rivojlanishini kuzatish va diagnostika qilish usullaridan foydalaniladi. Nazorat o‘quv jarayonining zarur tarkibiy qismi bo‘lib, butun o‘quv jarayoni davomida uzlusiz amalga oshirilishi kerak. Buning uchun uy vazifalarini tekshirish, so‘roq, test, kuzatish va boshqalar qo‘llaniladi.

O‘qitishni tashkil etishda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishning turli shakllarini bilish va mohirona foydalanish juda muhim omildir. Mashg’ulotni tashkil etish shakli deganda pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlar xarakterini aks ettiruvchi ta’lim jarayonini tashkil etishning tashqi tomoni tushuniladi.

Ta’lim faoliyati shakllari deganda biz bolaning atrofidagi odamlar (guruh, frontal, jamoa va boshqalar) bilan munosabatlarining xususiyatlari bilan ajralib turadigan bolalar faoliyatini tashkil etish usullarini tushunamiz.

Maktabgacha yoshdan boshlab ushbu ko‘nikmalar berib borilsa bolada umri davomida bilim olishga qiziqishi yanada ortib boradi, chunki unda maktabgacha yoshda egallagan bilim va malakasi saqlanib qoladi.

Bolaga ushbu bilimlarni o‘zlashtirishida teatrlashtirilgan tomoshalar, to‘rt besh boladan iborat bo‘lgan o‘zaro o‘yinlar, ertaklar yordamida nutqini mustahkamlab borish, turli xil muammoli vaziyatlarni muhomakamasi ancha qo‘l keladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tizimli hususiyatga ega bo‘lishi kerak. Aynan shuning uchun, biz maktabgacha ta’lim tashkilotining katta yoshli bolalariga hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik tizim sifatini qarab chiqamiz. So‘nggi yillarda Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘quvchilar texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida fanga oid bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, ularda hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik tizimlar ishlab chiqish har qachongidan ham dolzarb hisoblanadi. Bu o‘zgarishlarning mohiyati shundaki, bunda maktabgacha ta’lim tashkilotining katta yoshli bolalariga iqtisodiy bilim berishda texnologiyalardan foydalanish jarayonida ular quyidagilarni egallashi lozim:



**Foydalanimanadabiyotlar:**

1. SH.M.Mirziyoyev "Maktabgacha ta'limgizni boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora tadbirdirlari" to'g'risidagi PF-5198 son farmoni 30.09.2017yil
2. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI Maktabgacha ta'limgizni tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi «Ilk qadam» ikkinchi nashr Toshkent-2022
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-sodan MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI 2030-YILGACHA RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA PQ-4312-sodan
4. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
5. B.S Ramozonova.. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, 7(4).
6. Рамозонова, Б. С., & Абдумуминова, Д. (2023, March). Технологии развития учебно-познавательных компетенций студентов в процессе педагогической практики. In *E Global Congress* (No. 3, pp. 1-5).
7. Ramozonova , B. S., Maxmudova , D. A., & Ergasheva , B. Z. qizi. (2023). MALAKAVIY O'QUV AMALIYOTIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 52–56.
8. Ramozonova, B. S., & Gafforova, D. A. (2022). TECHNOLOGIES FOR DEVELOPING CREATIVITY AND COMPETENCIES OF FUTURE PEDAGOGUES IN THE PROCESS OF PRACTICE. *Экономика и социум*, (10-2 (101)), 158-161.
9. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227
10. Ramazonova, B., & Abdumo'minova, D. (2023). MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINING KREATIVLIGI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1 Part 2), 193-198.
11. Ramozonova, B. S., & Xo'shmurod qizi Xolto'rayeva, S. (2023). MALAKAVIY O 'QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING KONSEPTUAL ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(32), 181-184.
12. Kholtorayeva, S., & Ramozonova, B. (2023). THE VALUE OF FORMING BASIC COMPETENCES IN THE PROCESS OF PREPARING PRESCHOOL CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION. *GOLDEN BRAIN*, 1(32), 185-188.
13. Ramazonova, B., & Abdumo'minova, D. (2023). MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM PEDAGOGLARINING KREATIVLIGI. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 2(1 Part 2), 193-198.
14. Ramozonova, B. S., & Maxmudova, D. A. (2023). MALAKAVIY O 'QUV AMALIYOTIDA BO 'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 52-56.
15. Sadriddinovna, R. B. (2022, October). SIGNIFICANCE OF DEVELOPING STUDENTS'LEARNING COMPETENCIES IN THE PRACTICE. In *Archive of Conferences* (pp. 35-37).